



## 6-7 YOSHLI BOLALARNI MULOQOT KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARALI YO'LLARI

**Maxmudova Sevara Asatilla qizi,**  
*Qo'qon universiteti ta'lim kafedrasini*  
*o'qituvchisi*  
*dr.sevarara94@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab davriga tayyorlashning sifat va samara ko'effisientini oshiruvchi omillar, metodlar va usullari yoritilgan. Nutqning rivojlanishi nutq faoliyatining asosiy turlarini rivojlantirish, shuningdek, ularning boshlang'ich savodxonlik kursining eng oddiy grammatik va imlo qoidalarini o'zlashtirishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z navbatida, axloqiy masalalar va estetik g'oyalarni shakllantirish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, ijodiy qobiliyatlarni o'zlashtirish va bolalarning atrofidagi voqelik haqidagi o'ziga xos g'oyalarni boyitish kabi asosiy muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** nutq tomonlari, muloqot vositalari, tayanch kompetensiyalar, nutqiy vazifalar, nutqning rivojlanish sur'ati.

Muloqot qobiliyati sifatida nutq ta'lim jarayonida, shuningdek, kundalik hayotda muhim rol o'ynaydi. Yaxshi rivojlangan nutq bolalarga bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, o'z fikr va his-tuyg'ularini ifoda etish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, maktabgacha yosh davrda bajararilishi muhim bo'lgan vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ta'lim va tarbiya jarayoni qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, ko'zlangan natijalarga shunchalik tez erishiladi.

"O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"<sup>1</sup> va maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi"<sup>2</sup>da qayd etilgan "Nutq va til" markazida tashkil etiladigan faoliyat bolalarning aqliy, jismoniy, estetik, psixologik jihatdan rivojlanganlik darajasi va me'yoriy ko'rsatkichlarni oshirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi tomonidan tashkillashtirilgan faoliyat mazmuni "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" quyidagi maxsus vazifalardan iborat:

1. Lug'at zaxirasini boyitish.
2. Tovush madaniyatini shakllantirish.
3. Nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish.
4. Bog'lanishli nutqni rivojlantirish.

<sup>1</sup> "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". -T.: 2018y

<sup>2</sup> "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 y.



5. Ravon nuqtini rivojlantirish.
6. Badiiy so'zni rivojlantirish.
7. Savodga tayyorlash.

Bu kabi faoliyat turlari tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlash ishini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi va shu bilan birga, bolalarda tafakkurning tahliiy va umumlashtiruvchi turlarini, taqqoslay olish kabi psixologik jarayonlarini rivojlantirib, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantiradi.

Og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan ta'limiy faoliyatlarda asosan, bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga, nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo'shma gaplar tuzish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi. Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi: bolalarni o'z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mazmuni asosida hikoyalar to'qishga o'rgatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarining hikoyalari mazmunan bog'langan, ma'lum izchillikda grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi talablari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini grammatik tomondan to'g'ri o'stirish, ona tilini har tomonlama o'zlashtirishlarining aniq vazifalarini belgilab beradi. Har bir nutqiy vazifani o'rganish va amalda qo'llash zarurati har bir pedagog tarbiyachining malakaviy tavsifi, malakaviy kompetensiyasi hisoblanadi.

Har bir nutqiy vazifani o'rganish uchun qisqacha ta'rifini keltiramiz;

**1. Lug'at ustida ishlash.** MTTda lug'at ishi bolalarning ularga tanish bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan so'zlar bilan faol lug'atlarinn planli ravishda kengaytirib, boyitib borishdan iboratdir. Maktabgacha yoshidagi bolalarning lug'at boyliklarini kengaytirish uchun ularni atrof muhit bilan tanishtirish atrofdegilarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash bilan birga qo'shib olib boriladi.

Kichik guruhdagi bolalarga ularni o'rab olgan, o'zlariga yaqin narsalar tanishtiriladi. Bolani, guruhning xonasi, uyqu xonasi, maydoncha, oilasida ishlatiladigan ro'zg'or buyumlari — idishlar: piyola, kosa, li-kopcha; oyoq kiyimlari: botinka, tufli, kalish, mahsi, etik, shippak, MTTdagi xizmatchilarning mehnatlari: enaga, oshpaz, shifokor, tarbiyachining mehnati, transport turlari va shu kabilar bilan tanishtirgan ma'qul.



O'rta guruh bolalarini tug'ilib o'sgan shahri, jamoat binolari, magazin, maktab, teatr va shu kabilar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalarni yana turli harakat vositalari: avtomobil, poezd, samolyot, vertolyot, va boshqalar bilan tanishtiriladi.

Katta guruhlarda bolalar tevarak-atrofdagi narsalar, ishchilarning mehnati, bayramlar bilan tanishtiriladi. Bolalarga do'stlik haqida hikoya qilinadi, Bolalar o'z respublikalari O'zbekiston va uning poytaxti Toshkent haqida, o'zbek paxtakorlarining mehnati va shu kabilar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Bolalarga atrof hayot, voqeylik haqida tushuncha berish bilan bir,ga ularda yuksak axloqiy sifatlar: Vatanga muhabbat, kishilarning mehnatiga hurmat va muhabbat xislatlari shakllantiriladi.

**2. Tilning grammatik qurilishi** gapda so'zlar va so'z birikmalarini o'zgartirishga oid qonunlar hamda qoidalarning umumiyligi hisoblanadi. Grammatika yordamida gapdagi so'zlar joylashtiriladi va bir-birlari bilan qo'shiladilar. So'zlar faqat gaplar orqaligina muloqot vositasiga aylanadilar. Gapdan tashqarida har qanday so'z, xoh u ona tilidagi, xoh chet tilidagi so'z bo'lsin, muayyan ma'noga ega bo'lmaydi. SHuning uchun tilni o'rganishda uning grammatik tuzilishini o'zlashtirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ta'lim berishda orfoepiya, grammatika va leksikaning zamonaviy me'yorlarini hisobga olish zarur. Tilning asosini ona tilining leksikasi, tovush tizimi va grammatik tuzilishi tashkil qiladi. Bolalar bog'chasining nutqni rivojlantirishga doir Dasturi lingvistikada erishilgan yutuqlar asosida ishlab chiqiladi va u bolalar lug'atini boyitish, ona tilining fonetik jihatlarini, grammatik qurilishini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bolalarning turli nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda ularga o'zlarining ona tili bo'lmish o'zbek tili o'qitiladi, ya'ni ular o'zbek leksikasi, o'zbek tilining o'ziga xos fonetikasi va o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar.

**3. Tovush madaniyatii rivojlantirish.** Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ham til voqeligini eng oddiy tarzda anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar so'zlar, tovushlar, qofiyalarni (pomidor-koridor) faol o'ynaydilar. Ular so'z jaranglashidagi umumiy va turlicha tovushlarni belgilay oladilar, artikulyatsiya yoki akustik jihatdan yaqin tovushlarni (S-SH, S-Z, S-S) farqlashga qodirlar, she'r, maqol yoki tez aytishdagi 4-5 ta so'zda uchragan tovushlarni belgilay oladilar. Bolalar aralash tovushlardan iborat bo'lgan tez aytishlarni aniq talaffuz qilishni mashq qilishni, ularni turli tezlikda, turli ohanglarda aytishni yoqtiradilar. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda diksiyani o'rganish talabi mavjud.



**Diksiya** – talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. Pedagog uchun to‘g‘ri talaffuz eng kerakli qurol. Chunki eshitayotganlar tushunishi uchun – talaffuz ravon, har bir bo‘g‘in, so‘z va tovushlarni aniq aytishi kerak. Ritmika – ovoz maromi yoki vazni. Ba‘zi bir so‘zlarning bo‘g‘inlarning talaffuzi, ularning tezligini nutq suratini tashkil etadi. Ovoz tezligi har bir o‘qituvchining fazilati.

**Pauza** – temp va nutqning yoqimli bo‘lishi nutq ohangini tashkil etadi. (Monotonost) bir ohangda nutq zerikarli bo‘lib qiziqish va diqqatni pasaytiradi.

4. **Bog‘lanishli nutqni shakllantirish.** So‘zlashuv nutqi og‘zaki nutqning eng oddiy shaklidir. Nutqning bu shakli tushunarsiz, mantiqan bog‘lanmagan bo‘lsa, aloqa quroli bo‘la olmaydi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar so‘zlashuv nutqini kattalar yordamida egallaydilar. Bola birinchi bor bog‘chaga kelganda so‘zlamay jim yuradi, u yangi sharoitni kuzatib, o‘zlashtirib boradi.

Bolalarda so‘zlashuv nutqining shakllanishida yutuqqa erishish uchun turli-tuman yo‘llardan foydalanish lozim, ya‘ni bu yo‘llar kattalar bilan so‘zlashish, tarbiyachining bergan savoliga to‘g‘ri va to‘liq javob berish, atrofdagilarga savol bilan murojaat qilish, kattalar bilan so‘zlashganda o‘zini to‘g‘ri tuta olish va shu kabilarga o‘rgatish. Bolalarda so‘zlashuv nutqini bog‘chaga kelgan kundan boshlab shakllantirish kerak. Kichik guruh tarbiyachilari bu vazifani hal qilish usullarini yaxshi bilishlari lozim. Tarbiyachi bunda bolalar tilining grammatik qurilishiga alohida e‘tibor beradi. U bolalarni qisqa va to‘liq savol mazmunidan chetga chiqmay javob berishga o‘rgatadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida bolalar berilgan savollarni suhbatdoshidan so‘rab bilib olishga o‘rganadi.

**Dialog** — suhbat bolaning kattalar va uz tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashgulotlarda. Dialog ko‘proq, erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar 1 u Far i pi boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko‘nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi

Dialogik nutqni rivojlantirishda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) kirish (boshlash); 2) asosiy qism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga yetish. Kirish maqsadi bolalarning diqqat-e‘tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularda suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkoni boricha obrazli va emotsional taassurotlarni jonlantirishdan iborat.



Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doyr maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi.

Bu metod ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari;

Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

**Tayyorgarlik suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:**

To'g'ridan-to'g'ri — bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdosh so'zlarini bo'lmasdan tinglash, lukma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

**Suhbat** — talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi.

Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

**5. Ravon nuqtani rivojlantirish.** Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qartish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallaro, ichkiindividual va umuminsoniy. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

**1-vazifasi** – individuallaro – kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbat sifatida chiqadi.

**2-vazifasi** – ichkiindividual – bu yerda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tinik anglash darajasiga ko'targani



hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

**3-vazifasi** – umuminsoniy – bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda – bu grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir. Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha bosqichdagi turli davrlarda bolalarda o'zgarib turadigan kommunikativ tushadagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

**6. Badiiy so'zni rivojlantirish.** Bolalar badiiy adabiyoti ularga aqliy, axloqiy va estetik tarbiya berishda, nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishida katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarini poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. Pedagog o'qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya'ni aniq diksiyani, ifodali o'qish vositalarini (mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'ya olish, pauza, ovoz toni va tempi) egallagan bo'lishi kerak.

Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga yetkaza olingandagina, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri idrok ettira olish mumkin, Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yosludan boshlab rivojlantirish va tarbiyalash kerak. shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy nutqqa e'tibor berishga o'rganadi. Bolalar ongiga badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini yetkazish — bu murakkab vazifa hisoblanadi.

Pedagogik rahbarlikning bir maqsadga qaratilishi bolalar tomonidan badiiy asarlarning estetik jihatlarini va ularning mazmunini, badiiy ifoda vositalarini idrok etish imkonini yaratadi. Tarbiyachi bolalarga o'qilgan asarni chuqurroq o'zlashtirib olish, uni eslab qolishlariga yordam berish uchun turli metodik usullardan: takroriy o'qib berish, hikoya qilib berish, sahna- lashtirish va boshqalardan foydalanadi.

Takroriy o'qib berish. Bolalarda qiziqish uyg'otgan kichik asarni o'qib yoki hikoya qilib bergach, yana 1 — 2 marta takror hikoya qilib berish yoki o'qib berish yaxshi natija beradi. Agar hikoya qilib beriladigan asar hajmi yirik bo'lsa, u vaqtda eng qiziqarli yoki bolalarga yoqqan joyi takror o'qib beriladi. Tarbiyachi takror o'qib berishni 2 — 3 hafta o'tgach o'tkazgani ma'qul.

Sahnaiashtirish bolalarni badiiy asar bilan ikkinchi marta tanishtirish vositasidir. Eshitilgan asar mavzusi bo'yicha dramalashtirilgan o'yinni hamma yosh guruhlarida o'tkazish mumkin. Dramalashtirilgan o'yin odatdagi o'yindan rollarga bo'linib o'ynatadigan tayyor voqea borligi bilan farq qiladi. Dramalashtirilgan o'yin uchun



qahramonlarning nutqi dialog shaklida yozilgan asarlarni tanlash maqsadga niuvofiq hisoblanadi.

**7. O'qish va savodga tayyorgarlik.** Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish.

Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish.

**Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish:**

- gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;
- ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);
- so'zda tovushlar ketma-ketligini aniqlash;
- bo'g'inlardan so'zlar tuzishga o'rgatish;
- so'zlar ishtirokida gap tuzish;
- tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatish.

Ilmoq, chiziq, tayoqcha, gajak elementlarini chizishga o'rgatish.

Berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish.

Kesma bosma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatib borish;

Kesma bosma harflar bilan ishlashda bolalarga kesma harflardan bo'g'in tuzdirish va o'qitish. Tuzilgan bo'g'inlardan yoki bo'g'inli kartochkalardan so'z tuzdirish va o'qitish. O'z ismini kyesma bosma harflardan tuza olish. So'zning bo'g'in-tovush tahlilini o'tkazish. Bo'g'in o'qishda undosh tovush unli bilan birga bo'g'in hosil qilishini tushuntirishda davom etish. Bunda bolalarga undosh (D) tovushini ichda saqlab, keyin unlini (a)qo'shib birga o'qish lozimligini amaliy ko'rsatish.

Kesma bosma harflar yordamida bo'g'in va so'zlarni tuzish va ularni bo'g'inlab o'qishga o'rgatishda davom etish.

Namunadan turli so'zlarni olib yozish va chizishga, o'z ismini va 2-3ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil ravishda yozishga o'rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili o'rgatish pedagogik jarayon bo'lib, bola tarbiyachi rahbarligida atrof hayot haqidagi bilimni kengaytiradi, lug'at boyligini oshiradi. Bu jarayonda bolalarda aqliy faoliyatga uyushish qobiliyatlari tarbiyalanadi.

Bolalarga ona tili o'rgatish ta'limiy faoliyatlari bir tizimda o'tkazilishi lozim. Nutq o'stirish ta'limiy faoliyatlarini shunday tashkil qilish kerakki, har bir bola unda faol ishtirok etsin, berilgan vazifani to'liq o'zlashtirsin. Nutq o'stirish ta'limiy



faoliyatlarining bir qancha o'zi, ga xos xususiyatlari bor: bu ta'limiy faoliyatda bolalar ko'proq aqliy faoliyat bilan band bo'ladilar—o'ylaydilar, eshitadilar, gapiradilar. Ta'limiy faoliyatning muvaffaqiyati barcha bolalarning ta'limiy faoliyatga faol jalb ettirilishiga bog'liq. Bola maktabga borishi bilan uning nutqining sofligi haqidagi masala yanada murakkablashadi. Bola maktabga borishi bilanoq o'z nutqidan foydalanishga majbur bo'ladi: butun sinf oldida darsda javob beradi, o'qituvchiga savol beradi, ovoz chiqarib o'qiydi va hokazo.

To'g'ri va aniq nutq kishilarning faoliyatida katta ahamiyatga ega. Yaxshi va to'g'ri taraqqiy etgan nutq-maktabda muvaffaqiyatli. o'qish garovidir. Shuning uchun ham maktabgacha yoshidagi bolaning nutqini to'g'ri o'stirish jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalardan biridir. Buni tarbiyachilar va ota-onalar yaxshi bilishlari kerak.

#### Foydalangan adabiyotlar.

1. Makhmudova Oybarchin. (2023). Psychological and pedagogical aspects of the development of visual activities of preschool children. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8(8), 101–105. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.815>
2. Mahmudova Oybarchin Ahadovna, & Teshabayeva Saodat Erkinovna. (2022). The main problems in the organization of the educational and upbringing process in preschool educational organizations of the republic of Uzbekistan. *Epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(2), 127–130. Retrieved from <http://www.eprajournals.net/index.php/IJMR/article/view/92>
3. Erkinjonova Guljaxon Farxodjon qizi. (2024). Oilada bolalar bilan muloqotni tashkil etishning metodologik asoslari. *international journal of recently scientific researcher's theory*, 2(6), 317–326. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3805>
4. Tashmukhamedova, F. B., & Makhmudova, O. A. . (2023). Development of Connected Monological Speech of Preschool Children Using a Memonic Table. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 585–589. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/762>
5. Қодиров, В. ., & Махмудова, О. . (2022). Пластик материаллар ёрдамида дидактик ашёлар тайёрлаш методикасига оид тажрибалар. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(3), 116–123. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/1234>
6. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
7. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).





8. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
9. Muratovich, M. F., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
10. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
11. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.

